

## SURXON VOHASI BAXSHICHILIGIGA DAVLAT DARAJASIDA E'TIBOR

*Raximova Maysara*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Musiqqa ta'limi va san'at yo'nalishi*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxon vohasining o'ziga hos bo'lgan san'ati baxshichilik san'atiga davlat miqyosida bo'layotgan e'tibor haqida so'z yuritilgan. Baxshichilik san'atini jahon nomoddiy madaniy merosning Rerezentativ ro'yxatiga kiritilishi xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega voqea bo'lganligi hamda baxshichilikni asrab-avaylash va rivojlantirishda O'zbekiston bilan YuNESKO hamkorlikda olib borayotgan ishlari haqida fikr yuritilgan.

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlari va an'alarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.

Dunyo xalqlarining katta qismida dostonlarni jonli jarayonda kuylash so'ngan bo'lsa ham, bizda davom etib keldi. Chunki Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Dostonchilik va baxshichilik - milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyalarni xalqimizga yetkazish lozim. Baxshichilik maktabi xalq og'zaki ijodining noyob durdonalarini asrashga, uni rivojlantirishga, baxshilarning obro'sini ko'tarishga xizmat qilish kerak." Shu vazifalarni bajarish sohasida so'nggi ikki yilda Termiz shahrida maxsus "Baxshilar maktabi"ning tashkil etilishi, tumanlardagi musiqa maktablarida "Baxshilar sinfi" ochilib, ularga xalq baxshilarining an'anasini davom ettirish izchil yo'lga qo'yilganligi, Respublika hukumatining baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun maxsus qaror qabul qilganligi qadim san'atni asrab qolish, rivojlantirish va yosh avlod kamoloti yo'lida xizmat qildirishga qo'yilgan dastlabki rejalar, vazifalar, ishlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrda "O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbiga ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqiyosda yanada kengaytirish maqsadida" qabul qilingan "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'zbek dostonchiligi san'atini rivojlantirish va jahonga yoyishida davlat miqiyosidagi dasturilamal hujjat va yo'l-yo'riq bo'ldi.

Baxshichilik va dostonchilikni asrab qolish va yuksaltirish sohasida folklorshunoslik oldiga qo'yilgan vazifalar boshida shu sohadagi ustoz-shogirdchilik an'anasini saqlab qolib, yangi sharoitda rivojlantirish, yashab o'tgan taniqli, dongdor ajdodlarimiz nomini tiklash, xizmatlarini aniq, halol ko'rsatish, ustozlar an'anasini davom ettirib o'zlari bugun ustoz darajasiga ko'tarilgan baxshi-shoirlarimiz repertuarini yozib olish, tadqiq etish, dostonchilik sohasidagi va shogird tayyorlashdagi faoliyatlarini munosib yoritish turibdi.

O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali"ni tashkil etish hamda ushbu festivalni birinchi marta 2019 yilning 5-10 aprel kunlari o'tkazish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasi o'n kun muddatda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom hamda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini 2019 yilda o'tkazish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

3. Tashkiliy qo'mitaga:

Festivalni o'tkazish bo'yicha belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Festival sovrindorlariga topshiriladigan diplom, sertifikat, haykalchalar namunalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

Festivalni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish vazifalari yuklansin.

4. Surxondaryo viloyati hokimligi, Madaniyat vazirligi Festivalni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

5. Madaniyat vazirligi Festivalning tantanali ochilish marosimini har tomonlama puxta va badiiy jihatdan betakror usulda tayyorlash uchun yuksak professional mahorat va tajribaga ega bo'lgan ssenarist va rejissyorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh san'atkorlarni keng jalb etsin.

6. Surxondaryo viloyati hokimligi Termiz shahrida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilishini, Festival o'tkaziladigan sahna maydonlari va zallar talab darajasida tayyorlanishini ta'minlasin.

7. Madaniyat vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi, O'zbekiston Yozuvchilar

uyushmasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda:

Festival doirasida Termiz shahridagi "Surxondaryo san'at saroyi" davlat muassasasi maydoni hududida baxshichilik san'atiga oid turli ko'rgazmalar, milliy sozlar va liboslar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, albomlar, fotosuratlar namoyishi va ularning sotuvi tashkil etilishini;

Festival dasturi ishlab chiqilishi va uning Festival o'tkazilishidan uch oy avval turizm tashkilotlariga taqdim etilishini, Internet jahon axborot tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilishini;

Festival veb-saytini bir oy muddatda tayyorlab, Internet tarmog'iga joylashtirilishini hamda muntazam ravishda yangiliklar, fotosuratlar, audio va video materiallar bilan yangilab borilishini ta'minlasin.

8. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Surxondaryo viloyati hokimligi Festival qatnashchilari va mehmonlar uchun mehmonxonalardan joy ajratish choralarini ko'rsin.

9. Belgilab qo'yilsinki, Festivalni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda hamda homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

10. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Festivalga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Pq-3990-son qaroriga muvofiq 2019 yilning 5-10 aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida "Xalqaro baxshichilik san'ati festivali" bo'lib o'tishi hamda mazkur festival har ikki yilda bir marta an'anaviy tarzda o'tkazib borilishi belgilangan.

Joriy yilning 4 aprel kuni festival oldidan so'nggi tayyorgarlik mashqlari yakunlanib, barcha viloyatlar pavilonlari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar shuningdek, Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlari o'zlarining milliy urf-odatlarini, an'alarini, san'ati, xalq og'zaki ijodi ijrochilari asarlari, hunarmandchiligini o'zlari uchun belgilab berilgan Surxondaryo san'at saroyi hududida tashkil etilgan maydonda o'zlarining rang-barang dasturlarini xorijlik hamda yurtimizning turli joylaridan tashrif buyurishgan mehmonlar, mahalliy aholi, tomoshabinlar e'tiboriga namoyish etishdilar.

Termiz shahrida o'tkazilayotgan I Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining eng yosh baxshisi sifatida tomoshabinlar e'tiboriga tushgan G'olibjon Oribov do'mbira chertib, qo'shiq aytishni qoyillatdi. Asli Muzrabotlik bo'lgan G'olib baxshi "baxshilik" yo'nalishining 1-sinf o'quvchisi, shu yo'nalishda ta'lim berayotgan Muhammad Baxshi Eshboevdan baxshilik san'atining sir-sinoatlarini o'rganib kelyapti.

Festivalda 100 jildli Qoraqalpoq folklor to'plami namoyish etildi. Qoraqalpoq xalq ijodiyoti juda boy va qadimiy tarixga ega bo'lib, unda dostonlar alohida o'rin tutadi. Mazkur nashrdan "Alpomish" dostonining 8 xil varianti joy olgan bo'lib, ulardan har biri asl qo'lyozmaga muvofiq tayyorlangan.

Birinchi Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida Bosh vazir o'rinbosari Qoraqalpoqiston xalq ijodiyoti bilan tanishdi va zamonaviy dunyoda folklor san'atini saqlab qolish va uning xalqimiz tarixida tutgan o'rni haqida suhbatlashdi. -"Musiqi xalqlarni bir-biri bilan birlashtiruvchi asosiy rishtalardan biridir. Aynan folklor va o'ziga xos madaniyat butun dunyo ahlida katta qiziqish uyg'otadi", - dedi uchrashuv chog'ida Bosh vazir o'rinbosari.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Radjabova, G. M. The educational value of oral folk art for preschoolers. European research, (1), 75.
2. Rajabova, M. G., Makkaeva, R. S. A., & Mahluff, A. (2021). Strategic framework for sustainable enterprise development. In Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences (pp. 35-43). Cham: Springer International Publishing.
3. Rajabova, M. (2021). O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2- 1), 628-629.
5. Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. Scientific Impulse, 1(4), 288-291.
6. Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. Scientific Impulse, 1(4), 292- 296.
7. Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
8. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(2), 2
9. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology.
10. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. Analytical Journal of Education and Development, 1(06).
11. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 67-71.

12. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. Экономика и социум, (4-2 (95)), 211-214.
13. Хо'ягелдиёва, М. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rni. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
17. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
18. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
19. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
20. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
21. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923
22. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
23. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
24. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
25. ED Uktamovna. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
26. HN Pardayevna. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
27. CS Nasriddin o'g'li (2023). CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77